

Yoshlar bilan uchrashuv

Joriy yilning 3 mart kuni **“Ekologiya va suv resurslarini boshqarish”** kafedrasining o‘qituvchilari Parkent tumani 2 - sonli kasb - hunar maktabi o‘quvchilari bilan **“Tumandagi suv resurslari va ularni muhofaza qilish chora - tadbirlari”** mavzusida o‘quv - amaliy seminar o‘tkazildi. Tadbirda kafedra professori B.Abdullayev bugungi kundagi butun jahonda va O‘zbekistonda suvga bo‘lgan talab va ularni muhofaza qilish bo‘yicha olib borilayotgan chora - tadbirlar haqida maktab o‘quvchilariga taqdimot ko‘rinishida ma‘ruza qilindi. Ma‘ruza savol - javob ko‘rinishida olib borildi va barcha o‘quvchilar, yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar olishdi. Ushbu tadbirni tashkil qilgan Parkent tumani 2 - sonli kasb - hunar maktabi direktori J.Ro‘ziyev va uning jamoasiga minnatdorchilik bildiramiz.



Universitet matbuot xizmati